

**ERTA YOSHDA EMOTSIONAL RIVOJLANISH. ERIKSONNING 2-BOSQICHI
(1–3 YOSH). 3 YOSH INQIROZI**

Pulatova Muslima Otabek qizi ¹

¹ O'zbekiston Davlat Milliy Pedagogika Universiteti I- kurs tsrabasi
103- RT Rus tili adabiyoti va ona tili adabiyoti yo'nalishi Tillar Fakulteti

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna ¹

¹ Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti. O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.05.2025

Revised: 18.05.2025

Accepted: 19.05.2025

Erta bolalik (1–3 yosh) — bu bolaning
emotsional sohasini rivojlantirishda juda muhim
bosqich hisoblanadi. E. Eriksonning psixososial
rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bu davr ikkinchi
bosqich — “Avtonomiya va uyat hamda
ikkilanishga qarshi” bosqichga to'g'ri keladi.

KALIT SO'ZLAR:

KIRISH. Bu davrda bola mustaqillikka intiladi, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan
ishonchni rivojlantiradi. Emotsional rivojlanish kuchli kechinmalar, “Men” tushunchasining
shakllanishi, o'zini ifodalash istagi bilan birga kechadi. Ayniqsa...

Asosiy tushunchalar: emotsiyalar, erta yosh, avtonomiya, rivojlanish, o'zini baholash,
emotsional rivojlanish, Erik Erikson, 3 yosh inqirozi, mustaqillik, o'jarlik, salbiylik,
psixososial rivojlanish.

Erta yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishi bolaning qanday muhitda yashashiga
bog'liq. Ota-onalarning vazifasi – bolaning emotsiyalarini boshqarishni o'rgatish va o'z
holatini anglashga yordam berishdir. Bola uchun har qanday kechinma bir xil emotsional
kuchga ega. Uning miyasi har qanday holatni doimiy deb qabul qiladi.

Erik Erikson fikricha, erta yosh “avtonomiya – uyat va ikkilanishga qarshi” deb
nomlangan psixososial rivojlanishning ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi. Bu davrda bola
o'zini alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi, mustaqillikka intiladi: o'zi kiyinishga,
ovqatlanishga, kattalarning yordamisiz harakat qilishga harakat qiladi. Agar kattalar
bolaning tashabbusini qo'llab-quvvatlasa, u o'ziga nisbatan ishonchni shakllantiradi.
Aksincha, bolani doimiy cheklash yoki masxara qilish, unda uyat va ishonchsizli...

1–3 yosh oralig'ida bola asosiy emotsiyalarni (quvonch, qo'rquv, g'azab, ranjish)
o'zlashtiradi va ularni boshqarishni o'rganadi. Empatiya – boshqalarning kechinmalariga
hamdard bo'lish qobiliyati – paydo bo'ladi. Kattalar bolaning his-tuyg'ulariga hurmat bilan

qarasa va xavfsiz emotsional muhit yaratsa, barqaror va ijobiy emotsional sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Bolalar bu yoshda juda egoist bo'lishadi: ular faqat o'z istaklari va manfaatlarini hisobga olishadi; faoliyati esa faqat zavq olishga qaratilgan bo'ladi; faqat hozirgi istaklar muhim, rejalashtirish mavjud emas; empatiya zaif rivojlangan, boshqalar uchun qayg'ura yoki xursand bo'la olishmaydi; o'zini nazorat qilish qiyin, emotsional holati beqaror, quvonchdan histerik holatgacha o'tishi mumkin; istalgan narsani ololmaslikka nisbatan tajovuzkor reaksiya paydo bo'ladi.

Ayrim hollarda buzilishlar ham uchraydi: emotsional desentratsiya yo'qligi – ya'ni bola hamdardlik ko'rsata olmaydi. Emotsional sintoniya yo'qligi – bola yaqin odamlari holatiga emotsional javob qaytara olmaydi. Aybdorlik hissining yo'qligi. Emotsional qo'zg'aluvchanlik yuqori – eng arziyas sabablarga ham g'azablanish, tajovuzkorlik, asabiylik. Bular ko'pincha shaxslararo mojarolarga sabab bo'ladi. Shaxs ichidagi ziddiyatlar esa asossiz va tez-tez kayfiyat almashinishida ifodalanadi.

Eriksonning 2-bosqichi (1–3 yosh) “mustaqillik – ikkilanish” qarama-qarshiligi bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda bola turli harakatlarni bajarishni o'rganadi: yurish, yugurish, toqqa chiqish, ochish-yopish, surish, tortish, uloqtirish va hokazo. Bolalar yangi qobiliyatlari bilan faxrlanadi va hamma narsani o'zlari qilishga intiladi. Agar ota-onalar bolaga o'zi bajara oladigan ishlarni qilishga imkon bersa, unda mustaqillik va o'z tanasini boshqarish bo'yicha ishonch shakllanadi. Aksincha, agar kattalar sa...

Bu bosqichda to'rtta yo'nalishda rivojlanish kuzatiladi:

1. Intelektual rivojlanish – bolalarda yuqori psixik funksiyalarning rivojlanish yo'nalishi. Bilish jarayonlarining so'z orqali ifodalanishi (verbalizatsiya) boshlanadi. Verbalizatsiya orqali tasvirli tafakkur rivojlanadi. Bu tasvirli fikrlash rivojlanayotganda bolalarning tasavvuri ham kuchayadi. Ammo bu davrda tasavvur va xotira hali ixtiyorsiz bo'lib, qiziqish va emotsiyalarga bog'liq tarzda paydo bo'ladi.

2. To'g'ri yurishni o'zlashtirish – kattalarning yordami, qo'llab-quvvatlashi va faoliyatga undashi bolada yurishga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. To'g'ri yurishni to'liq o'zlashtirish yurish harakatlarining murakkablashuvi (masalan, tepalikka chiqish-tushish, tosh ustiga bosish va hokazo) bilan emas, balki yurish va tanasini boshqarishdan lazzatlanish bilan bog'liq.

3. Nutq rivoji – 1 yoshga kelib bola ayrim so'zlarni biladi va talaffuz qiladi, so'ngra so'zlarning ma'nosini anglab boradi. 1,5 yoshga kelib bola 30–100 gacha so'zlarni biladi, lekin ularni kam ishlatadi. 1,5 yoshdan so'ng nutq faolligi oshadi: 2 yoshga kelib 300 ta, 3 yoshga kelib esa 1500 ta so'z ishlatadi. 2 yoshda bola ikki-uch so'zli gaplarni aytadi, 3 yoshga kelib esa erkin so'zlasha oladi.

4. Shaxsiy rivojlanish – bu davrda mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj kuchayadi va bu “Men o'zim” yoki “Men xohlayman” degan so'zlar orqali ifodalanadi. Bola kattalar qilayotgan ishlarni bajarishga harakat qiladi: chiroq yoqish, do'konga borish, ovqat pishirish va hokazo. Ammo bu istaklar bolaning imkoniyatlaridan yuqori bo'ladi va barchasini qondirishning imkoni yo'q. Shuning uchun bolaning o'jarlik va salbiylik holatlari namoyon bo'ladi — ayniqsa uni doimiy parvarishlaydigan kattalarga nisbatan.

3 yosh inqirozi – bu bolaning rivojlanishidagi burilish davri bo'lib, u erta bolalikdan maktabgacha yoshga o'tish davri hisoblanadi. Bu inqiroz har bir bolada har xil darajada

bo'lsa-da, albatta kuzatiladi. Har qanday inqiroz bu ichki "xohish" va "imkon" o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Bola o'z istaklarini amalga oshiro olmaydi (ichki ziddiyat), shu bilan birga kattalarning cheklovlariga duch keladi (tashqi ziddiyat). Bu holatda bola nima qiladi? Qarshilik ko'rsatadimi yoki bo'ysunadimi? Bola qo'li kelgan...

3 yosh inqirozining 7 ta asosiy belgisi mavjud:

1. Salbiylik – bola kattalarning aytganini bajarishdan bosh tortadi, faqat ularni kattalar aytgani uchun rad etadi. Bu "xohlamayman" emas, balki "aytganing uchun bajarmayman".

2. O'jarlik – ilgari qabul qilgan qarorida qat'iy turadi, hatto bu qaror endi dolzarb bo'lmasa ham.

3. Qonunsizlik (stroptivlik) – ilgari qabul qilingan normalarga qarshilik ko'rsatadi, ularga bo'ysunishni istamaydi.

4. O'zbilarmonlik (svoevoliye) – hamma narsani o'zi qilishga intiladi, natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar.

5. Qadrsizlantirish – ilgari muhim bo'lgan narsalarni yoki kishilarni kutilmaganda inkor etadi.

6. Despotizm – bola yaqinlari ustidan to'liq nazorat o'rnatishga urinadi, talabchanlik kuchayadi.

7. Qarshilik – hamma narsaga qarshi turish: hatto o'zi taklif qilgan narsani ham rad etadi.

Xulosa: Erta yoshdagi emotsional rivojlanish – bu kelajakdagi shaxsiy yetuklikning asosi. "Avtonomiya va uyat" bosqichi hamda 3 yosh inqirozi – bu yo'ldagi muhim bosqichlardir. Kattalarning qo'llab-quvvatlashi, hurmati va qabul qilishi bolaga o'ziga ishonchli, ochiq va emotsional jihatdan barqaror shaxs sifatida ulg'ayishiga yordam beradi. Bu inqiroz holatlari – bolaning shaxsiyati shakllanishining tabiiy bosqichi bo'lib, ular orqali deyarli barcha bolalar o'tadi. Kattalarning asosiy vazifasi – sabrli bo'...

Adabiyotlar:

1. Erikson E. "Bolalik va jamiyat"
2. V.S. Muxina. "Yosh psixologiyasi"
3. L.S. Vygotskiy. "Bola rivojlanishi psixologiyasi"
4. V.S. Muxina. Yosh psixologiyasi. – M.: Akademiya, 2010.